



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYAT  
NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING  
QARORI**

210200, Navbahor t., Boburshoh k 4, tel: (79) 562-15-82, 562-11-84, 562-14-76,  
e-mail: navbahor@nv.uz, [info@navbahor.uz](mailto:info@navbahor.uz)

2023 - yil 7 - dekabr

176-5-73-Q/23

Navbahor tuman hokimligi

**Xalq deputatlari Navbahor tuman Kengashining navbatdagi oltmish yettinchi sessiyasini chaqirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 17 moddasi hamda xalq deputatlari Navbahor tuman Kengashi reglamentining 10 moddasiga muvofiq,

**QAROR QILAMAN**

1. Xalq deputatlari Navbahor tuman Kengashining oltmish yettinchi sessiyasi 2023 yil 11 dekabr kuni Navbahor tuman hokimligi katta majlislar zalida chaqirilsin.

2. Xalq deputatlari Navbahor tuman Kengashining oltmish yettinchi sessiyasiga quyidagi masalalar kiritilsin:

- Tumanda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha mas’ullar tomonidan olib borilayotgan ishlar holati hamda oldinda turgan vazifalar to‘g‘risida,

- 2024 yil uchun Navbahor tuman mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida,

- Tumanda korrupsiyaga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar va aniqlangan kamchiliklar borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida,

- Tuman Davlat soliq inspeksiya boshlig‘ining mahalliy budjet

prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash, hududning iqtisodiy o'sish nuqtalarini inobatga olgan holda qo'shimcha manbalarni aniqlash, soliq qarzlarni qisqartirish, ortiqcha to'lovlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida,

- Tumanda aholi va ijtimoiy soha ob'etlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida,

- Boshqa masalalar.

3. Tuman hokimining o'rinbosarlari, guruh rahbarlari hamda masalaga aloqador soha rahbarlari xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish yettinchi sessiyasi kun tartibiga qo'yilgan masalalar yuzasidan ma'lumotlarni to'g'ri va sifatli tayyorlagan holda xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga 2023 yil 9 dekabr kuniga qadar taqdim etsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish yettinchi sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ishlarini muvofiqlashtirish Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (Z.Qudratov) zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**А.Ўроқов**